“BAHTIM SHUL, O‘ZBEKNING ZULFIYASIMAN”

.

Rahmatova Gavhar

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 1-XTCHO`IUDU maktabi

o`zbek tili fani o`qituvchisi

Nafaqat o`z she`rlari,balki butun hayoti bilan o`zbek ayolining ma`naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni fidoiy insonlar qatoriga qo`shsak arziydi. Uning jahon minbarlaridan yangragan she`rlari Sharq ayolining aqlu zakosi, fazlu kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she`riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan,desak, mubolag`a bo`lmaydi.

Ayolini asragan,uluglagan xalq- buyuk xalq. Ayollari baxtli elning esa farzandlari barkamol, kelajagi nurafshondir. Zotan, O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek,ayol baxtli bo`lsa, oila sog`lom bo`ladi, oila sog`lom ekan- jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir.

Butun mamlakatimiz ahli har bahorni shoira Zulfiya tavallud topgan kunni nishonlash bilan kutib olishni an`anaga aylantirgan. Shoira kitoblarini yurtimizdagi ko`plab oilaviy kutubxonalar javonida ko`rish mumkin.

Zulfiya xalqimiz tarixining ajralmas qismi sifatida bugun yoshlar qalbida, ongu shuurida o`z ijodiy nafasi, yashab o`tgan fidoiy umri bilan mangu qolishga haqlidir. Shoira merosidan bahra va o`rnak olib ulg`aygan xotin-qizlar oila va mahallada, jamiyatimizda tinch va osoyishta hayotning, mehr-oqibat, shafqat va muruvvat tuyg`ularining qadriga yetish, o`zaro hurmat va hamjihatlik kabi sog`lom muhitni mustahkamlashga munosib hissa qo`shaveradi.

Zulfiyaxonimning mehrigiyosi, ohangrabosi bor edi. Bir marta u kishining suhbatida bo`lgan har qanday inson shoiraning mehru muhabbati, o`zgacha salobati, ulug`vorligiga maftun bo`lar, bu uchrashuvni umrbod eslab yurardi . Uning jo`shqin, o`ktam ovozi dunyo minbarlarida o`zbekning shonu- shavkatidan so`ylagan, Sharq she`riyatining sehru -jozibasini jahonga tarannum etgan.

Shonu -shuhratning yuksak cho`qqilarda turgan shoiraning behad go`zal samimiyati, odamjonligi hammani lol qoldiradi.

Shoira Zulfiya inson qadrini, so`zini ulug` tutar, muhlislarining maktublariga mehr va muhabbat javob xatlari bitardi.

Zulfiyaning yuragini she`riyat katta olam, olis yo`llar bilan bog`ladi, taniqli shoira, jamoat arbobi sifatida jahon minbarlarida ovozi yangray boshladi. Uning “Mushoira” si she`riyatni insoniyat baxtu- saodati, tinchligi, do`stu -birodarligining buyuk elchisi maqomiga ko`tardi.Poezziyaning jozibasi, o`zbek tilining kamalak ranglari, Tinchlik, Do`stlik degan nonday aziz so`zlar oftobi dunyo xalqlarining yuragiga kirib bordi uning mag`rur ovozida Sharq mumtoz adabiyotidagi mushoira janriga yangi mazmun, ma`no bag`ishladi . Sharq she`riyati osmonida “Zulfiya” degan go`zal yulduz charaqlab porladi.

Har yili bahorning birinci kunida ko`ksida Zulfiya siymosini porlatib navnihol Zulfiyalar safimizga kirib keladilar.Zulfiyaning ovozi, so`zlari, yoshligi bo`lib ko`zimizni quvontirib yuradi ular. Zulfiyaning bog`larida navqironlik, mehr-muhabbat, sadoqat, nafosat, Vatanga so`nmas e`tiqod chechaklari ochilaveradi . Bu bog`lar xazon bo`lmaydi, shoira aytganidek, uni mahv etolmas xazon lashkari…

O`zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimda asarning ruhan kuchli qahramoniga o`xshash iroda,cidam,bardosh, ayni damda ulug`lik bor edi. U kishini mehridan bahramand bo`lib adabiyotga kirib kelgan ayollar – buni har lahzada his qilamiz.

Ulkan odam bo`lib yashash, bu ulkanlikni boshqalar uchun xaloskorlikka, tayanchga, suyanchga aylantirish, bir so`z bilan aytganda, Zulfiyaxonim ijodidagi mag`rur, ayni damda kuchli inson obrazi hamma zamon va makonlarga bo`larli timsoldir…

Zulfiyaxonim shaxsidagi buyuklikning yana bir ildizi ularning ustozlik maqomlari bilan bog`liq. Ustoz yoshlarga “oq yo`l” tilagan,nafaqat ilk she`rlarni mehr nazaridan o`tkazib berganlar. Bu ustozlikning, ustozlik maqomining oliy belgisi bo`lsa kerak. Darhaqiqat, “Halq mehrida yorman el shuhratiga”, deya ijod qilgan, yashagan ulug` inson qalbiga yaqinroq boramiz.

Biz yoshlar uchun Zulfiyaxonim mehr va muhabbat, vafo timsoliga aylanib bo`lgan inson. Shu bois ham shoira nomidagi davlat mukofotini ko`ksiga tumordek taqib olgan yoshlarni ko`rib ko`zimiz quvnaydi. Zero, Zulfiyaxonimning o`zi orzu qilgandek,

Men ketsam mung`aymas umrim hech qachon,

Bu bog`lar bir bog`lar bo`ladi hali…

Zulfiya ijodi – ayol shiddati, yurakning shamchiroqqa aylanishi, o`zi yonib atrofga yorug`lik taratishi . Ayni paytda undagi sokinlik qudrati, hayol mavjlanishlari, qalbning o`z chegarasini anglashi, tuyg`ularning tartiblanishi tartiblanishi his (olov) va aql (suv) muvozanatining go`zal ifodasidir.

Zulfiya ijodiy yo insoniy farzandlarga mehribonlik, vafodorlik, sadoqat jihatdan ijodkor shaxs sifatida Hamid Olimjon maktabida tarbiya oldi, charxlandi, kamolga yetdi,deyish mumkin. Shoira uchun Hamid Olimjon talabchan ustoz, adolatparvar

Salohiyatli ijodkor, bilimli – mehribon do`st edi. Zulfiya xotiralariga tayansak, Hamid Olimjon unga ko`proq sevikli yor, farzandlarining onasi va shogird sifatida qaraganini anglaymiz.

Zulfiyaning bahor kelgan kunda tug`ilgani va baxtni hamisha ko`klam timsolida ifodalashi bejiz emas. Buni “Bahor keldi seni so`roqlab ” she`rida misolida ham ko`rish mumkin.

Shoira xalqimiz va Vatanimiz tarixida buyuk kun- Mustaqillikni katta quvonch bilan qarshi oldi. Uning el taqdirida mangu yashashini niyat qildi:

Hurriyat, kelding-ey, nahotki kelding,

Kelar yo`llaringda pinhona toldim.

Mening ota-onam, jon Vatanimda,

Elim taqdirida abadiy qolding!

Kelding-ey, Istiqlol, istiqbol bo`lib,

Qalbimga nasiming bilan yo`l solding.

Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,

Men og`ir bulutdek bir yog`ub oldim…

Bugun mamlakatimizda qiz o`stirayotgan aksariyat ota-ona farzandining Zulfiyaga munosib voris, ma`naviy izdosh bo`lishini istaydi. Zotan, xalqimiz hayot ekan Zulfiyaning ijodiy va hayotiy merosi donolik, sadoqat, vafo, e`tiqodi ning eng hayotbaxsh o`zanlaridan saboq beraveradi.

Bandaman, ey, Tangrim, kashfi tabiat,
Axir bir kun so`nar ko`zlarimda nur.
Kalimaga zaif qolganda qudrat,
Senga so`nggi sajdam - umrim to`kilur …